

2024-yil II-chorak davomida Navoiy viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ishonch telefoni, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Navoiy viloyat hokimligi, boshqa yuqori turuvchi organlar tomonidan jami **816 ta** murojaat kelib tushganligi, shundan **758 ta** murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ishonch telefoni va Xalq qabulxonalaridan, **58 ta** murojaat O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi hamda viloyat hokimligi orqali kelib tushgan.

Hududlar kesimida eng ko'p murojaat Navoiy shahri **426 ta**, Uchquduq tumani **204 ta**, Zarafshon shahriga **52 ta**, Xatirchi tumaniga **49 ta** va Karmana tumaniga **34 ta**.

Sohalar bo'yicha tahlil qilinganda:

Iссиqlik tizimi, issiq va sovuq suv masalasi bo'yicha jami **447 ta**;

Ichimlik suvi masalasi va Oqava suv (kanalizatsiya) bo'yicha **76 ta**;

Yer-joy masalasi bo'yicha **122 ta**;

UJMSH faoliyati bo'yicha (tik quvurlar va boshqa) **130 ta**.

Umumiy kelib tushgan **816 ta** murojaatning **560 tasi** ijobiy hal etilgan bo'lib, **232 ta** murojaat esa huquqiy ma'lumot va tushuntirish berish orqali hal etilgan. **24 ta** murojaat o'rganish jarayonida Murojaatlar amaldagi qonun hujjatlari asosida tushuntirishlar berilgan hamda qolgan murojaatlar bo'yicha fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatilib, ko'tarilgan masalalar ijobiy hal etilgan.